

**O'QUVCHI YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY  
TARMOQ TA'SIRINING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Xolikova Xilola Gulamovna

Navoiy viloyati Karmana tumani l-umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

Nematov Siroj G'ulom O'g'Li

Navoiy viloyati Karmana tumani l-umumiy o'rta ta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha direktor o'rinnbosari

**Annotatsiya:** Maqolada o'smirlar tarbiyasining psixologik jihatlari, ularning ma'naviy-xulqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi omillardan biri bo'l mish ijtimoiy tarmoqning psixologik jihatlari haqida so'zyuritildi.

**Kalit so'zlar:** O'smirlilik davri, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy tarmoqlar, odob- axloq, "Facebook", Sotsial tarmoqlar.

Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Internetning ommalashib borishi bir qancha qulayliklarning kashf qilinishini, hayot sur'atlarining tezlashishini va turli ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos yangiliklarning kirib kelishiga, tarqalishiga sabab bo'ldi. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Uning natijasida masofalar qisqardi, kam vaqt evaziga ko'pgina ishlarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi .

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda internetdagagi ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa yoshlar orasida ommalashib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagagi o'rnini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo, tahlikali jihatlariga ham ko'z yumolmaymizki, ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat vaqtimiz, balki ruhiy sog'ligimizni ham qurban beryapmiz.

Aksariyat kishilar kundalik stress va tashvishlardan uzoqlashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan panoh topishga urinishadi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar stressni ozaytirish uchun emas, aksincha, ruhiy ziqlik va asabiylikni ortirish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lgan kishilarda xavotir, vahima, asabiy tajanglik va behalovatlik boshqalarga nisbatan ko'proq ko'zga tashlanishi aniqlandi.

Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtiolaridan biri bo'l mish sotsial tarmoqlarni chetlab o'tolmaymiz. Joriy vaqtda sotsial tarmoqlar deyarli butun dunyon qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi ko'radi. Kimga internetda o'z rasmlarini qo'yish, olis masofadagi do'stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o'yinlar o'ynash, musiqa tinglash va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish, statuslarni tinmay o'zgartirish yoqmaydi deysiz?

Hozirgi zamonda ko'p yoshlar o'z vaqlarini sotsial tarmoqlarda o'tkazishadi. Ular hatto darslarini, uy yumushlarini va o'z rejalarini ham yodidan chiqarib yuborishadi. Bu esa,

sotsial tarmoqlarga qaram bo'lishdan boshqa hyech gap emas. Yoxud boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu – psixologik qaramlikdir.

Odamlar bamisolai sotsial tarmoqlarda “yashashadi”. Ular uchun virtual hayot muammolari va tashvishlari har narsadan, jumladan real hayotdan ustun turadi. Bizning fikrimizcha, bu tendentsiya salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki inson sotsial tarmoqlarda bo'lar ekan, u o'z hayotini faqat shu tarmoqlar orqali ko'radi, xulosalarni tarmoq nuqtai nazaridan va ulardagi a'zolar fikrlaridan chiqaradi, uning dunyoqarashi shu tarmoq doirasida shakllanadi, xullas bunday insonlaring ongi faqat bir olamda yashaydi. Inson real hayotidagi kamchiliklarini, siqilishlarini va muvaffaqiyatsizliklarini tarmoqda qoplashga intiladi. Rasmlar va ularga berilgan sharhlar, yangi do'stlar, yorqin lavhalar va tarmoqlararo uyushmalar odamni to'lqinlantiradi. Internet ularning fikrlashini butunlay o'zgartirib yuboradi. Undan tashqari sotsial tarmoqlar g'arazgo'y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishlari mumkin. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan axborot va xabarlar boshqalar tomonidan o'g'irlanishi, buzilishi va boshqa tarmoq a'zolariga yuborilishi mumkin. Yoki firibgarlar qalbaki rasmlar va yolg'on ma'lumotlar bilan o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hatto sotsial tarmoqlar butun boshli qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoq orqali fikr bildirish va buning ortidan maqtov (“layk”)larni qo'lga kiritishga urinish bugungi yoshlarini tobora o'z domiga tortmoqda. Buning salbiy tomoni shundaki, foydalanuvchi bunday maqtov (“layk”)larni yana va yana olishni istaydi va rohatlanadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi va giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchini mana shu bog'langanlik va rohatlanish hislari birlashtirib turadi.

Buning oqibatida ular virtual dunyoga butkul sho'ng'ib ketadilar va tashqi dunyodan uziladilar. Ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan yoshlar boshqalar bilan jonli muloqotda qiynaladi, odamovi bo'lib qoladi, do'stlashishda adashadi, birovga hamdardlik bildirish haqida umuman bosh qotirib o'tirmaydi. Faqat ijtimoiy tarmoqda topgan “do'st”larining fikri bilan ish ko'radigan bo'lib qoladi.

Ta'bir joiz bo'lsa birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargoxdarida, balki radio- televiedeniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi”.

Shunday ekan internet bu zamon talabi. Uni inkor etish mumkin emas, ammo internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga umuman yoshlarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Bunday imkoniyatlarning ijtimoiy tarmoqda kengayib borishi, bugungi kunda insonlardan yanada hushyorlikni talab qiladi. Chunki, hozirgi vaqtida dunyo bo'ylab keng foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlar chegara bilmayapti. Silliq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq hayot kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, ijtimoiy

tarmoq insonning o‘z qobig‘idan chiqishi dunyoni yolg‘on va soxta nigohlar bilan ko‘rishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bo‘sh vaqtini faqat sotsial tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishlari noto‘g‘ri. Chunki, jonli, haqiqiy va real muloqot o‘rnini hyech narsa bosa olmaydi. Yoshlar kitob o‘qishlari, o‘z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faollik hyech narsani belgilamaydi va inson to‘g‘risida haqqoniy bo‘lmagan ma‘lumotlarni saqlashi mumkin. So‘zim songgida, biz sotsial tarmoqlarning hayotimizga bo‘lgan ta’sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a’zosi bo‘la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim. Ijtimoiy tarmoq yutuqlaridan foydalanish barobarida yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantiruvchi tarbiya metodlaridan foydalanish lozimligi begungi kunning ham e’tiborga molik jabhalaridan birdir.

Hammamiz ham yangiliklardan xabardor bo‘lish, dunyoqarashimizni o‘sirish maqsadida internet tarmoqlariga murojaat qilamiz. Muhimi – ulardan oqilona foydalansak, xususan yoshlarni aqlan va ruhan to‘g‘ri tarbiya topishida, turli yot qarashlar ta’siriga tushib qolmasliklariga xushyor bo‘lsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday ekan ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviyatiga katta ta’sir o‘tkazishini esdan chiqarmaslik lozim. Buning uchun har bir yosh, o‘smirlar o‘z vaqt taqsimotini nazorat qilila bilishi, ma‘lum bir ezgu maqsad sari harakat qilishi va o‘z ilmini muntazam boyitib borishi lozim bo‘ladi. Chunki ko‘pgina inson axloqiga zid ma‘lumotlar bo‘sh vaqtidan to‘g‘ri foydalanishni bilmaydigan, ilmsiz kishilarni o‘z domiga tortadi. Ijtimoiy tarmoqdan foydalanishda me’yorni bilish va undan oqilona foydalanish kerak. Buning uchun, avvalo, ta‘lim dargohlarida internetdan foydalanish madaniyatini o‘rgatuvchi mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish, ota-onalar farzandlarining bo‘sh vaqtlarini nazoratga olishi va bolaning yoshiga qarab, unga ijtimoiy tarmoqdan foydalanishga ruxsat berishi lozim.

Har bir ne’mat insonga xizmat qilishi uchun yaratilgan. Ulardan o‘z o‘rnida va me’yorda foydalanishga e’tibor berilmasa ne’matlar zillat (zarar)ga aylanadi.